

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARDA DINIY LEKSEMALARNING QO‘LLANILISHI

Ziyodjon Sharipov

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi paremiologik birliklar asosini tashkil etuvchi maqol va matallar, ularda diniy atamalarning qo‘llanilishi, maqollar etimologiyasida dinning tutgan roli muhokama qilingan. Maqolada, shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida mavjud diniy atamalar ishtirok etgan maqollar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: maqol, matal, paremiologiya, diniy leksika, hikmatli so‘z, jannat, do‘zax, farishta.

ABSTRACT

This article discusses the proverbs and sayings that considered as the basis of paremiology, usage of religious vocabulary in those units and the role of religion in the etymology of proverbs existed in both Uzbek and English language.

Keywords: proverb, fable, saying, paremiology, religious vocabulary, hell, heaven, angel.

Har bir til paydo bo‘lgandan boshlab ma’lum omillar ta’sirida muntazam ravishda harakatda bo‘ladi. Mana shu omillarning eng kattasi va tilning taraqqiyot bosqichlaridagi asosiy yetakchisi sifatida din talqin etiladi. Tilning rivojlanishi va boyishi, unga yangi so‘zlarning kirib kelishi umumiy qilib aytganda uning evolutsiyasi shubhasiz, shu tilda so‘zlashuvchilarning diniy qarashlari bilan bilan bog‘liqdir. Diniy leksikada ham xuddi shu holatni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, diniy qarashlarning ma’lum muddatdan so‘ng o‘zgarishi, ma’lum urf odatlarning bid’at sifatida iste’moldan chiqib ketishi, diniy sohaga oid yangi adabiyotlar yoki ilmiy ishlarining vujudga kelishi yoki boshqa tildan tarjima qilinishi hisobiga tildagi diniy leksik qatlam ham boyitib borilishi mumkin. Ushbu maqolada tildagi mavjud paremiologik birliklarda diniy atamalarning ishtiroki xususida so‘z yuritiladi.

Paremiologiya (yun. paroimia — hikmatli so‘z, zarbulmasal va... logiya) — 1) ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va so‘zda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni — paremalarni o‘rganadigan fan sohasi.¹

Berdiyev H., Rasulov R., Uzbek tilining paremiologik lug‘ati, T., 1984.¹

Paremiologik birliklar qadimdan har bir xalqning o'g'zaki ijodi mahsuli sifatida e'tirof etilgan. Garchi paremiologik birliklar tushunchasi kengroq ma'no kasb etsa-da, uning eng katta qismini tashkil etuvchi maqollar har bir til uchun xos bo'lib, ularda diniy leksemalardan foydalanilganligini o'zbek va ingliz tillaridagi maqollar va aforizmlarda yaqqol kuzatishimiz mumkin. Diniy leksemalar ishtirok etgan maqollar tahlilidan oldin maqollar haqida quyidagi fikrni keltirish umkin: Maqollarga ta'rif berib, uning fazilatini filologiya fanlar doktori, professor B. Sarimsoqov quyidagicha tasnif etadi¹.

1. Maqol hamma vaqt aniq tugal fikr anglatadi. Bu fikr qat'iy, lo'nda xulosa sifatida

ifodalanadi. Fikriy lo'ndalik esa fikrni ixcham ifodalashga imkon beruvchi yaxlit kompozitsiya asosida yuzaga keladi.

2. Maqol uchun ma'lum bir fikrni mantiqiy ixchamlikda va qat'iy qutbiylikda ifodalash xarakterlidir.

3. Maqollar ham o'z, ham ko'chma ma'noda ishlatilish imkoniyatiga egadir. Bu xususiyat

maqollarning tematik doirasini, qo'llanish chegarasini kengaytiradi. Shuning uchun ham maqol bir yoki bir necha xalqlar nutqida parallel qo'llaniladi. Maqollar mazmunan g'oyat kengdir. Bu xususiyat maqolga o'z-o'zidan katta semantik ko'chimlar imkonini beradiki, natijada birgina maqolning o'zini turli vaziyatda turlicha mazmunda qo'llash mumkin. Mana shu xususiyat maqolga ko'p hollarda barhayotlik bag'ishlaydi.

Har bir millatda din asosiy tarbiya vositasi, insonlarning yashash tarzini belgilovchi hamda ularning xatti-harakatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida xizmat qiladi va o'sha millatning ona tilisi ham aynan dinning tamoyillari aks ettiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, paremiologik birliklarning didaktik xarakterga ega ekanligini hisobga olsak nafaqat o'zbek tilidagi maqol yoki matallarda balki, boshqa tillarda ham ushbu birliklarda diniy atamalarning qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin. Paremiologik birliklar turli mavzularga oid bo'lsa-da, ular har doim chuqur ma'noga va insonni tarbiyaga yetaklovchi ruhga ega ekanligi ularning asosiy xususiyatidir. Shu jihatdan, ya'ni tarbiyaviy ahamiyatga egaligi va xalqning turmush tarzini aks ettirish asnosida vujudga kelishi tufayli din bilan vazifadosh hisoblanadi va bir qator diniy atamalarni o'z ichiga oladi. Masalan:

1. Har bir dinda mavjud universal tushunchalar: Olloh, farishta, shayton, jannat, do'zax, halol, xarom kabi.

¹ Xo'jayev G'.K. Nemis tilshunoslikgida maqol janri va uning qiyosiy o'rganilishi\ Xorijiy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning qiyosiy-tipologik tahlili (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 27-28 aprel 2018)

2. Dinda muqaddas sanaluvchi joy, narsalarning atoqli otlari: Ka'ba, Madina, Hiro tog'i, Makka, Quddus..

3. Dindagi insonning ilmiy darajasini belgilovchi otlar: muftiy, shayx, qori, domla, qoriya, mulla yoki mullo, qozi, imom, murid, muezzin, so'fi, mujovir, shayxul-islom, eshon, xalifa, abbat, rohib.

4. Dindagi muqaddas harakatlar (ibodatlar) ni ifodalovchi otlar: namoz, farz, sunnat, Haj, ro'za, zakot, cho'qintirmoq kabi. Demak yuqoridagi semantik guruhlariga kiruvchi bir qator so'zlar ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar, hikmatli so'zlarda eng ko'p qo'llaniladiga diniy leksemalardir.

O'zbek tili qadimdan maqollar matallar va hikmatli so'zlarga boyligi bilan ajralib turadi. O'zbek tilidagi quyidagi paremiologik birliklarda diniy leksemalarni uchratishimiz mumkin: Jannat onalar oyog'i ostidadir, imom och qolsa bozor kezar-so'fi och qolsa mozor, mullaning semizidan qo'rq- tabibning orig'idan, Olloh berganni mullo bermas, mulla bilganin o'qir, bolali uy bozor bolasiz uy mozor, yomon xotin erga do'zax, yaxshi ro'zg'or jannat- yomon ro'zg'or do'zax¹ kabi. Ushbu maqollardagi diniy leksemalar o'z manosida qo'llangan bo'lib, tinglovchiga aynan ta'sir etish uchun yo'naltirilgan ma'noni yanada kuchliroq ifodalashga xizmat qilmoqda. Masalan, do'zax-ko'pchilik diniy ta'limotlarga ko'ra, din talablarini bajarmagan gunohkorlar oxiratda jazolanadigan joy. Yahudiylik, xristianlik, islom dinlaridagi asosiy tushunchalardan biri. Lekin yuqorida keltirilgan misollarda yomon ayol, yomon ro'zg'or kabi tushunchalar do'zaxga qiyoslanmoqda. Bundan tushunish mumkinki, diniy atamalar oddiy so'zlarga qaraganda kuchliroq ma'no kasb etishi va tinglovchiga uning e'tiqodlari bilan bog'liq bo'lganligi tufayli ta'sir etish xususiyatini hisobga olgan holda ularni intensiv bo'yoqqa ega deb xulosa qilishimiz mumkin.

Ingliz tili leksikasining yirik qismini diniy atamalar tashkil qiladi: abbey, almighty, angle, bible bishop, charm, church, creator, credence, creed, devil, disciple, divine, evil faith, fasting, god, goddess, heaven, heavenly, hell, hermit, holy, image, islam lord, miracle, monk, moral, mosques, sacred kabi.

Quyida ingliz tilidagi diniy qarashlar asosida shakllangan maqollardan bir nechasin ko'rib chiqamiz: Obedience to a woman leads to hell, street angel-house devil, God helps those who help themselves, even in hell you meet relations, He who has money can eat ice cream in hell, talk of the devil and he is sure to appear, an idle brain is the devil's workshop, If God were not forgiving, heaven would be empty.

Yuqorida keltirilgan diniy leksemalardan tashqari ingliz tilida yana minglab din bilan bog'liq so'zlarni uchratishimiz mumkin: abbey, almighty, angle, bible bishop, charm, church, creator, credence, creed, devil, disciple, divine, evil faith, fasting, god,

¹ Suvonqulova H. O'zbek xalq maqollari \ Adabiyot uchqunlari, Toshkent-2014

goddess, heaven, heavenly, hell, hermit, holy, image, islam lord, miracle, monk, moral, mosques. Ingliz va o'zbek tillaridagi diniy atamalar ma'nolarining mos kelishi ular tarkibidagi komponentlarning o'xshashligi, ularning mazmuniy salmoqlarida umumiylik yoki aynanlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu xususiyat inson tafakkurining yagona mantiqqa egaligidan va turli xalqlar turmush tarzida ob'ektiv o'xshashlik borligidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. Toshkent, 1978.
2. Karamatova M.K., Karamatov H.S. Proverbs Maqollar. Toshkent, Mehnat, 2000.
3. Eshboltayev B. O'zbek va ingliz tillarida komprativ iboralar: Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences volume 2, issue 1 p.106-108
4. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-702-707>
5. https://www.academia.edu/4810186/PHRASEOLOGICAL_UNITS_IN_RELIGION
6. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/691>